

UO‘K: 336.011

**MOLIYAVIY SAVODXONLIK, AHOLI DAROMADLARI VA
HARAJATLARINING O‘ZARO BOG‘LIKLIGI**

Ziyodullaev Navruzbek Botir o‘g‘li
*Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti magistranti
navruzbekziyodullaev@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlik tushunchasi, ta‘rifi, moliyaviy savodxonlikning ahamiyati, nega moliyaviy savodxonlik muhimligi va qanday usullar orqali o‘rganish mumkinligi keltirib o‘tildi. Aholi daromadlari va harajatlarining to‘g‘ri taqsimoti, aholi daromadlarini oshirishda jamg‘armaning ahamiyati, jamg‘arishning turli usullari va ularning afzalliklari ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsiya, kreativ yo‘l, pul, jamg‘arma, markaziy bank va iqtisodiy atama.*

**FINANCIAL LITERACY, INTERRELATIONSHIP OF POPULATION INCOME
AND EXPENDITURE**

Ziyodullaev Navruzbek Botir ugli
*Denov, entrepreneurship and pedagogy
Master’s student of the institute*

Abstract: *In this article, the concept of financial literacy, its definition, the importance of financial literacy, why financial literacy is important and how it can be learned have been mentioned. The correct distribution of income and expenses of the population, the importance of savings in increasing the income of the population, different methods of savings and their advantages were considered.*

Key words: *Innovation, creative way, money, savings, central bank and economic term.*

**ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ, ВЗАИМОСВЯЗЬ ДОХОДОВ И
РАСХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ**

Зиедуллаев Наврузбек Ботир угли.
Магистрант Денов предпринимательство
и педагогика института

Аннотация: В этой статье было упомянуто понятие финансовой грамотности, ее определение, важность финансовой грамотности, почему финансовая грамотность важна и как ей можно научиться. Рассмотрены правильное распределение доходов и расходов населения, значение сбережений в увеличении доходов населения, различные способы сбережений и их преимущества.

Ключевые слова: Инновации, творческий путь, деньги, сбережения, центральный банк и экономический термин.

KIRISH

Jamiyat rivojlangan sari uning ehtiyojlari ham ortib boradi va bu ehtiyojlar o'sib borishi natijasida yangidan-yangi kashfiyotlar kashf qilinadi. Misol uchun, yerga bo'lgan ehtiyojning ortishi buyuk kashfiyotlar davrini boshlab berdi: Amerika qit'asi ochildi, bug' mashinalar ixtiro qilindi, samalyotlar yaratildi va bularning hammasi insonning biror narsaga ehtiyoj sezishi bilan boshlangan edi.

Global moliyaviy savodsizlikning aniq o'lchamini aniqlash qiyin bo'lsa-da “Xalqaro hisoblar federatsiyasi”ning[1] tadqiqotlari natijasida moliyaviy savodxonlikning jamiyatga bir nechta iqtisodiy va ijtimoiy salbiy ta'sirlari borligi aniqlandi:

Jamg'arma va investitsiyalarning kamayishi, chunki moliyaviy savodsiz shaxslar jamg'armalar va investitsiyalar bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish uchun ko'pincha bilimga ega emaslar, bu esa milliy darajada iqtisodiy o'sishga ta'sir qilishi mumkin va moliyaviy xizmatlardan foydalanishni cheklashi mumkin;

Qarz olish bo'yicha yomon qarorlar qabul qilish ehtimoli ko'proq bo'lgan, moliyaviy bilimlari cheklangan, odamlar uchun yuqori qarz va bankrotlik stavkalarini to'g'ri baholay olmaslik ularning moliyaviy inqiroziga olib keladi. Shunga qaramay, yuqori bankrotlik stavkalari va kreditlarni to'lamaslik nafaqat jismoniy shaxslarga ta'sir qilishi, balki moliyaviy tizimga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

Aholining moliyaviy tabaqalanishi, chunki moliyaviy savodsizlik ko'pincha kam daromadli va boy aholi qatlamlariga turli ravishda ta'sir qiladi. Bu o'z navbatida qashshoqlikni davom ettiradi va daromadlar tengsizligini kuchaytiradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston aholisi ham daromadlarini oshirishga ehtiyoj sezmoqda bu esa o'z navbatida ularni nimadir yangilik yoki kashfiyot qilishga yoki bo'lmasam hali O'zbekiston hududida yo'q ammo chet elda o'zining anchagina yaxshi natijalariga erishgan kashfiyotlarni O'zbekistonga olib kelishga undashi kerak. Qisqa qilib aytganda aholi o'zining daromadlarini oshirish uchun hayotga innovatsiyani kreativ yo'lda olib kirishi kerak. Rivojlangan mamlakatlar xattoki boshqa sayyoralarni o'rganayotgan bir vaqtda, O'zbekiston aholisi hali ham o'sha an'anaviy usulda fizik mehnat qilib daromad topayotgani achinarlidir. Aholining intellektual salohiyatini oshirish va g'oyalarni loyihalarga aylantirib ularni real hayotga tadbiiq etish innovatsiyaning boshlang'ich negizidir. Allaqachon kashf qilingan biror narsani qaytadan kashf kerak emas, uni modernizatsiyalash, takomillashtish yoki O'zbekiston tabiatiga moslashtirish ham globallashtirishga o'z hissasini qo'shmay qolmaydi. Fan va tehnikaning eng so'nggi yutuqlarini chuqur o'rgangan holda hayotga tadbiiq etish bilan bir qatorda, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash kerakligi ham hozirgi zamonning dolzarb masalalaridan biridir.

Materiallar va ushbu mavzuning o'rganilganligi

Hozirgacha moliyaviy savodxonlikning aniq bir o'lchovi mavjud emas. Ammo biz maqola tayyorlashda asosan abstraktlashtirish, konkretlashtirish qiyoslash, iqtisodiy tahlil - analiz, sintez, induksiya, deduksiya kabi metodlar qo'llanilgan.

Abstraktlashtirish - Aholini moliyaviy savodxonligini oshirishda internet saytlari yoki kitoblardan foydalanishda yuzaga keladigan fors-major holatdagi muammolar mavhumlashtirilgan.

Konkretlashtirish - Moliyaviy savodxonligi oshgan aholi o'zining har xil moliyaviy muammolar, qarz botqog'i, bankrotlik holatlari, firibgarlarning tuzog'idan va boshqacha moliyaviy zararlardan qutulib qolishi ochib berilgan.

Qiyoslash - Moliyaviy savodxonligi yaxshi bo'lgan aholi bilan moliyaviy savodsiz bo'lgan aholi o'zaro qiyoslangan.

Tahlil: analiz - Aholining moliyaviy savodxonligi oshishi natijasida aholining moliyaviy turmush darajasining oshishi tahlil qilingan .

Mavzuni o'rganishda hayotiy misollar, real muammolar, nazariy asoslar va uslubiy yondoshuvlar maqola ishining metodikasini tashkil qiladi.

Aholi daromadlarini oshirishning nazariy asoslarini o'rganish bo'yicha o'zining muhim hissalarini qo'shgan xorijlik davlat arboblari qatorida Li Kuan Yu[2], Li Myon Bak[3], Adam Smit[4], Larisa Burakova[5] va boshqalarni alohida tilga olish mumkin. Shuningdek Amerika va Yevropa ittifoqi olimlaridan aynan aholi daromadlari va ularni oshirish istiqbollari yuzasidan ilmiy faoliyat olib borgan olimlardan Stuart T.E. [6] va Perkmann M. [7], Jin, P. [8] larni keltirish o'rinli bo'lar edi.

MDH davlatlarida ham ushbu sohada yetarlicha ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borayotgan Rossiya, Qozog'iston, Estoniya va boshqa mamlakatlarning ham yetakchi olimlarining ilmish izlanishlarini sanab o'tish joiz, jumladan, Seryukova S.V. [9], Sayakbayeva A.A. [10], Suvorov A.V. [11] va boshqalar ushbu mavzu yuzasidan keng ko'lamli tadqiqotlar olib borishgan.

O'z navbatida, O'zbek iqtisodchi-olimlari ham ushbu masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi amaliyotining tahlili asosida ilmiy tadqiqotning xazinasini o'zlarining maqola va ilmiy chiqishlari orqali yanada boyitganlar. Ular qatoriga Abduramanov X.X[12], Мухтаров Б. А. [13] va G'ayratovna, Q. N. [14] larning ilmiy ishlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Moliyaviy savodxonlik.

Eng birinchidan moliyaviy savodxonlik tushunchasining mohiyatini bilishimiz zarur. Moliyaviy savodxonlik bu - pulni oqilona boshqarish san'ati.

Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning dolzarbligi quyidagi sabablar bilan belgilanadi[15]:

1. Aholining daromad manbalari tarkibining o'zgarishi. Aholi daromadlari tarkibida kichik biznes, oilaviy va yakka tartibdagi tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar ulushini ortib borishi jamg'arma va investitsiyalarni samarali boshqarish va xarajatlarni to'g'ri rejalashtirishga bo'lgan ehtiyojni keskin ortishiga olib keladi.

2. Ko'p sonli xususiy tadbirkorlarni paydo bo'lishi. Bunday tadbirkorlar kundalik ish faoliyatida turli boshqaruv masalalarini yechadilar: moliyaviy oqimlarni va moddiy aktivlarni boshqarish, moliyaviy hisobga olish, daromad va xarajatlarni rejalashtirish, sug'urta fondlarini

shakllantirish, moddiy resurslarni sotib olishni optimallashtirish, bank xizmatidan foydalanish, jamg'armalarni investitsiyalash, kreditlar olish va qarzni boshqarish kabilar shular jumlasidandir.

3. Aholini uzoq muddatli jamg'armalarga va kredit olishga bo'lgan ehtiyojini keskin ortishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg'arishning quyidagi funksiyalarini mustaqil amalga oshirishi lozim: qo'shimcha pensiya jamg'armalarini amalga oshirish, tibbiyot, ta'lim xizmatlariga to'lash uchun jamg'arish. Yuqoridagi holatlar oila budjetini uzoq muddatli rejalashtirishni, risklarni moliya dastaklar (sug'urtalash , pensiya jamg'armalari, bank depozitlari va qimmatli qog'ozlarni investitsiyalash) orqali baholash va boshqarishni talab etmoqda. Shunday qilib, uzoq muddatli jamg'armalarni shakllantirish va kredit olish ko'nikmalariga o'qitish aholining moliyaviy savodxonligining muhim funksiyasi hisoblanadi.

4. Shaxsiy jamg'armalarni investitsiyalash va moddiy aktivlarini boshqarish imkoniyatlarini kengayishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg'armalari va investitsiyalashini amalga oshirishning turli muqobil usullari vujudga keladi. Bank- lar va boshqa moliya institutlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlardan unumli foydalanish uchun kreditlarni boshqarish, investitsiyalashni amalga oshirish, to'g'ri samarali qarorlar qabul qilish uchun aholi moliyaviy savodxon bo'lishi lozim.

5. Aholi mehnat migratsiyasi miqyosini kengayishi. Xorijda ishlovchi mehnat migrantlari mehnat faoliyati jarayonida ishdan bo'shatish, aldash, yomon ijtimoiy sharoitlar, yomon muomila kabi xatarlar ta'sirini kamaytirish uchun migrantlarni pul o'tkazmalari, xorij mamlakatlardagi bank xizmati, sug'urta tizimi to'g'risidagi savodxonligini oshirish lozim.

6. Aholini iste'mol madaniyati sohasidagi an'analarini ayrim xususiyatlari. Aholining ba'zi an'anaviy bayramlarga sarflaydigan katta xarajatlarini qisqartirish va inson kapitalini investitsiyalash maqsadiga yo'naltirish uchun sarflanadigan investitsiyalarni ko'paytirish zaruriyati moliyaviy savodxonlikni oshirishni taqozo etadi.

7. Qator moliyaviy xizmat turlari nisbatan kam iste'mol qilingani uchun ularni is'temol qilish tarkibi cheklangan.

8. Hamma moliyaviy xizmatlar sotib olinayotgan davrda sifati xususiy tekshiruvdan o'tkazilmaganligi uchun sotuvchilar tomonidan sifatsiz mahsulotlarni sotish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda.

9. Tomonlarning o'z zimmlariga olgan yuqori majburiyatlarini tekshirish xarajatlarini ko'pligi.

Moliyaviy savodxonlik tizimini joriy etish ayniqsa aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari uchun juda muhim hisoblanadi. Jahon amaliyotining ko'rsatishicha moliyaviy jihatdan savodxon kishi quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

- pul va narxlar bo'yicha oqilona qarorlar qabul qila olish;
- oilaviy budjetni samarali boshqarish qobiliyatiga ega bo'lish;
- moliyaviy aktivlar va xarajatlarini samarali boshqarish bilimlariga ega bo'lish;
- moliyaviy majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda bajara olish;
- moliyaviy xizmatlardan keng foydalanish asosida shaxsiy jamg'arma va investitsiyalarini amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar sonini ortishi;
- turmush darajasidagi o'zgarishlarga egiluvchan yondashish.

Rivojlangan davlatlarda aholi savodxonligini rivojlantirishni samarali sohalari quyidagilardan iborat:

- pensiya sug‘urtasi;
- kreditlash (iste‘mol va ipoteka);
- aholi jamg‘armasi va investitsiyalari

Moliyaviy savodxonlik nega kerakligini, keling ushbu hayotiy misolda ko‘rib chiqaylik.

Hozirgi kunda zamon rivojlangan sari texnika texnologiya ham rivojlanib bormoqda va bu o‘z navbatida firibgarlikning yangi tarmoqlariga masalan banknotalarni qalbakilashtirishga ham keng yo‘llarni ochib bermoqda.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi. Xo‘sh, qalbaki pullarga aldanib qolmaslik uchun nima qilish kerak? Haqiqiy banknotlarni qalbakisidan qanday ajratish mumkin? Shu kabi real muammolarning oldini olishda bizning moliyaviy bilimlarimiz yordamga keladi.

Eng ishonchli usuli - banknotni istalgan bankda tekshirtirishdir. Bu bepul, lekin har doim ham qulay emas. Demak, haqiqiy pulni qalbaki puldan qanday farqlashni o‘rganamiz.

Haqiqiy banknotlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri - himoya elementlaridir. Himoyaning asosiy elementlari[16]:

- Suvli belgilar - yorug‘likda suvli belgilar, tasvirdagidan ochroq rangda ko‘rinadi;
- Tolalar - qog‘oz matoga kiritilgan rang-barang iplar;
- Releflari (bo‘rttirilgan) bosma - teginish orqali idrok etiladigan tasvir va yozuvlar;
- Gologramma - burchak ostida qaralganda uch o‘lchamli gologramma tasvirini beruvchi element;

- Qog‘ozning ichki tuzilmasida portret tasvirning orqa tomonidan mavjudligi.

Ushbu tasvir yorug‘likka qarshi qaratilib tekshiriladi.

Qalbaki banknotni nima qilish kerak?

1. Banknotlar sizning cho‘ntagingizga tushishidan oldin tekshirishingiz kerak. Agar biron-bir shubha bo‘lsa, pulni olmang.

2. Agar qo‘lingizda allaqachon shubhali banknot topsangiz, uni sarflashga shoshmang. Agar u haqiqatdan ham qalbaki bo‘lsa, eng kami huquqni muhofaza qilish organlarida vaqtingiz uzoq tushuntirish ishlariga ketadi.

3. Shubhali pulni biror bir tijorat bankiga olib boring. Ehtimol, pul haqiqiy, ammo shikastlangan bo‘lishi mumkin.

Bank mutaxassislari odatda sizning oldingizda tekshiruv ishlarini olib boradi va agarda pulingiz yaroqli bo‘lsa o‘sha qiymatda sizga yangi pul beriladi. Agarda pulingiz foydalanishga yaroqsiz yoki qalbaki bo‘lsa, bank ushbu banknotani muomiladan chiqaradi va sizga hech qanaqa kompensatsiya to‘lanmaydi.

Yuqoridagi misolda moliyaviy savodxonlik nega kerakligi yaqqol ko‘rinib qoldi. Endi tasavvur qiling siz biznes boshlamoqchisiz, siz biror bir start-up yoki innovatsion loyihaga sarmoya kiritmoqchisiz. Bu kabi murakkab tahlillarga asoslangan iqtisodiy holat va jarayonlardagi muvaffaqiyatingiz sizning moliyaviy savodxonligingiz bilan o‘lchanadi.

Daromadlar va xarajatlarning o‘zaro bog‘liqligi.

Daromadlar va xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash, moliyaviy maqsadlar va moliyaviy yostiqlar uchun pullarni ajratishni rejalashtirish uchun jamg‘armalarni shakllantirish bo‘yicha bir nechta samarali texnikalarni ko‘rib chiqamiz[17]:

1. “Yarim-yarim” texnikasi - eng oddiy usul. Jamg‘arishga tayyor bo‘lganlar, lekin hisoblashni istamaydigan odamlar uchun qulay texnika xisoblanadi. Ya‘ni, maoshingizning yarmini jamg‘arma uchun ajratasiz va shu pullarni unutasiz, ikkinchi yarmini esa kunlik xarajatlar uchun sarflashingiz mumkin.

2. “60% texnikasi” - moliyaviy maslahatchi Richard Jenkins tomonidan ixtiro qilingan, usulning mohiyati shundaki, daromadingizning 60% qismini siz joriy xarajatlar uchun, qolgan qismini esa quyidagicha taqsimlaysiz: 10% pensiya jamg‘armalari; 10% uzoq muddatli xaridlar va to‘lovlar; 10% rejasiz xarajatlar; 10% har qanday o‘yin-kulgi.

3. “50-30-20” texnikasi (E. Uorren)

Ushbu texnika bo‘yicha quyidagi uchta yo‘nalishni muvozanatda saqlash zarur:

Zaruriyat (daromadning 50% qismi): oziq-ovqat, kommunal xizmatlar va boshqalar;

Istaklar (daromadning 30% qismi): kitoblar, filmlar, kafe va boshqalar;

Jamg‘arma (daromadning 20% qismi): 10% - moliyaviy yostiqlar, 10% - moliyaviy maqsadlar.

4. “Olti ko‘zalar usuli” yoki “Ko‘zalar qoidasi” texnikasi (ing. 6 Jars Budgeting Method[18]) - byudjetlashtirishda qo‘llaniladigan klassik konvertlar texnikasi. Ushbu pulni boshqarish tizimi T.Xarv Eker tomonidan “Millionerdek o‘ylang” kitobida tasvirlangan. Ushbu texnikaning mohiyati shundaki, barcha daromadlarni oltita toifa (ko‘zalar)ga taqsimlanadi va belgilangan tartibda sarflanadi:

1-ko‘za. Zarur yoki joriy xarajatlar - 50% ni tashkil qiladi. Ushbu ko‘zada quyidagi joriy xarajatlar uchun pul saqlanadi: oziq-ovqatlar, kommunal xizmatlar, kreditlar, dori-darmonlar, transport, tibbiyot va boshqalar.

2-ko‘za. Istaklar - 10%. Bu ko‘zadan pul o‘zingiz haqingizda qayg‘urishingiz uchun sarflanadi. O‘zingiz odatlanmagan xaridlarni amalga oshiring. Ushbu ko‘zadagi pul hisobidan massaj, karting klub, konsert yoki dam olishga borishingiz mumkin. O‘zingizni rag‘batlantiring, ortiqcha pul sarflaganingiz uchun vijdon azobisiz rohatda yashang.

3-ko‘za. Moliyaviy erkinlik - 10%. Ushbu ko‘za sizning moliyaviy erkinligingiz uchun chipta hisoblanadi. Pullar hech qanday sharoitda sarflanmaydi, faqat passiv daromad olish uchun ishlatiladi. Moliyaviy erkin bo‘lganingizda ham, ushbu ko‘zadagi pullardan olgan foydanigina sarflashingiz mumkin.

4-ko‘za. Ta‘lim - 10%. Ushbu ko‘zadagi pul ta‘lim va shaxsiy rivojlanish uchun sarflanadi. O‘zingiz va bolalaringizga sarmoya kiritish - pul sarflash uchun ajoyib sabab. Pullar ta‘lim, o‘quv kurslari, master-klasslar, treninglar va kitoblar uchun sarflanadi. O‘z-o‘zingizni rivojlantirish sizga nafaqat asosiy ishingizda, balki qo‘shimcha va passiv daromad manbalarini yaratishda ham ko‘proq imkoniyatlar berishi mumkin.

5-ko‘za. Zaxira fondi va kelajakdagi xaridlar - 10%. Ushbu ko‘zada saqlanadigan pullardan moliyaviy yostiqlar sifatida katta xarajatlar uchun foydalanish mumkin (ta‘til, idish yuvish mashinasi, avtomobil va h.k.). Ushbu hisobdagi pul moliyaviy qiyinchiliklardan xalos bo‘lishga, qarzlardan qutulishga va kelajakka ishonch bildirishga imkon beradi.

6-ko‘za. Sovg‘alar va xayriya hisobvarag‘i - 10%. Ushbu ko‘zadagi pul xayriya maqsadlarida yoki do‘stlar, qarindoshlar, qo‘shnilarga sovg‘alar xarid uchun sarflanadi. Bu pullarni qancha erkin sarflasangiz, shuncha tezroq qaytib keladi. Bundan tashqari, yaqinlarga sovg‘alar ulashish har doim yoqimli.

Xulosa va takliflar

Shuni ta’kidlash joizki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy savodxonlik va ommaboplikni oshirish maqsadida hukumat topshirig‘iga asosan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Xattoki, aynan shu maqsadda department ham tashkil qilingan[19] va faoliyati uzluksiz olib borilmoqda. Siz masofadan turib O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo‘yicha axborot-ta’lim veb-sayti[20] orqali o‘zingizning moliyaviy savodxonligingizni oshirib borishingiz mumkin. Ushbu platforma maqolalari va manbaalari mutlaqo bepul bo‘lib, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida tashkil qilingan.

Maqolaning takliflar qismida aynan moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida o‘zimizning tashabbusim bilan dasturlangan “Iqtisodchi”[21] telegram botini taklif qilmoqchiman. Ushbu bot moliyaviy savodxonlikni oshirishga mo‘ljallangan bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

□ mingdan ortiq iqtisodiy va moliyaviy atamalarning imloviy lug‘ati;

□ jahon bestseller kitoblarining elektron kutubxonasi;

□ moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan Markaziy bank tashabbusi bilan suratga olingan qisqa metrajli filmlar, multfilmlar va boshqa foydali manbaalardan iborat.

Keyingi taklifim “Moliya olami”[22] interaktiv ta’lim platformasi bo‘lib, ushbu platforma Markaziy bank tomonidan VISA to‘lov tashkiloti bilan hamkorlikda ishga tushirildi.

“Moliya olami”- bu aholi uchun interaktiv “edutainment” formatidagi onlayn o‘quv ta’lim loyihasi.

Platforma o‘quv tematik modullarining 4 ta bosqichidan o‘tishni nazarda tutadi:

- «Bilimlar mamlakati» - kartalar va banklar haqida asosiy bilimlar
- «Chiqimlar mamlakati» - mablag‘larni oqilona sarflash
- «Omonatlar mamlakati» - jamg‘armalar va sarmoyalar
- «Biznes mamlakati» - biznes uchun maslahatlar va layfhaklar

Har bir ishtirokchi 4 ta bosqichdagi moduldan va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan taqdirda virtual diplomga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xalqaro hisoblar federatsiyasining rasmiy web sayti <https://www.ifac.org/knowledge-gateway/contributing-global-economy/discussion/cost-financial-illiteracy#:~:text=Higher%20debt%20and%20bankruptcy%20rates,effects%20on%20the%20fi nancial%20system>.

2. Li Kuan Yu: “Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga”. Singapur tarixi (1965-2000) “From third world, to first world” <https://asaxiy.uz/uz/product/li-kuan-yu-uchinchi-dunedan-birinchi-dunega-singapur-tarihi-1965-2000>

3. Li Myon Bak: “Mo‘jiza sodir bo‘lmaydi” <https://asaxiy.uz/uz/product/li-myon-bak-muzhiza-sodir-bulmajdi>
4. Adam Smith. Nature and causes of the wealth of nations. London 1989: Printed for A. Strahan ; and T. Cadel, in the Strand. Fifth edition https://books.googleusercontent.com/books/content?req=AKW5QadRcf2G-2YVILFJTt1r-A-oQ4O8Vzi7c9Y3M5Y1mDYM1QFQ2uKSoFhpkZnmsgkWILTTC7Tk7lqznQKLM2ZxWNUXJcjZilZ5AYd2ii4zxnwouIDeRjLzPNZAhZY29d_Y5wyWE--dN302c5-6liYboHbSDAsM6yg5vsbS0mcNnxufQG0AolG3AzBliQz1g-z7RpDWwpqzLYuhobjoeA7wzDZG6hjr7IDXofTjhO6qRf1vOidwE_r9mGlPokPXpjwKoLiNn-N9H0dJZduxAdDNiCA0oElfrJqOD_a3m3WXfzt0-x0A
5. Larisa Burakova: “Gruziya muvaffaqiyatga qanday erishdi” <https://asaxiy.uz/uz/product/larisa-burakova-gruziya-muvaffakiyatga>
6. Stuart, T.E.; Ding, W.W. When do scientists become entrepreneurs? The social structural antecedents of commercial activity in the academic life sciences. *Am. J. Sociol.* 2006, 112, 97–144. [Google Scholar] [CrossRef]
7. Perkmann, M.; Tartari, V.; McKelvey, M.; Autio, E.; Broström, A.; D’este, P.; Fini, R.; Geuna, A.; Grimaldi, R.; Hughes, A.; et al. Academic engagement and commercialisation: A review of the literature on university–industry relations. *Res. Policy* 2013, 42, 423–442. [Google Scholar] [CrossRef]
8. Jin, P.; Mangla, S.K.; Song, M. The power of innovation diffusion: How patent transfer affects urban innovation quality. *J. Bus. Res.* 2022, 45, 414–425. [Google Scholar] [CrossRef]
9. Севрюкова, С. В., & Коростелева, О. Н. (2017). Формирование денежных доходов населения как социально-экономический аспект регулирования уровня жизни. *Концепт*, (11), 151-155.
10. Саякбаева, А. А., Акылбекова, Н. И., & Таалайбек, Т. (2020). Доходы населения как фактор экономического роста. *Известия Иссyk-Кульского форума бухгалтеров и аудиторов стран Центральной Азии*, (2), 82-89.
11. Суворов, А. В. (2008). Проблемы оценки дифференциации доходов населения в современной России. *Проблемы прогнозирования*, (2), 3-18.
12. Abduramanov X.X, Arabov N.U, Xolmuxamedov M.MningAholi daromadlari va turmush sifati "TAFAKKUR BO'STONI""TOSHKENT-2014"
13. Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378.
14. G'ayratovna, Q. N., Abdujaborovna, I. N., & Usmonbekovich, Y. I. (2023). AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIINI OSHIRISH VA JAMG'ARMA USULLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 34(2), 134-139.
15. Nazarova S. Moliyaviy savodxonlik asoslari. Toshkent-2020 <https://altsul.uz/wp-content/uploads/2021/04/Moliyaviy-savodxonlik.pdf>

16. Qanday qilib pul haqiqiyligini tekshirish mumkin?
<https://finlit.uz/uz/articles/money/how-to-verify-the-authenticity-of-money/>
17. Jamg‘arish texnikalari - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlikni bo‘yicha axborot-ta‘lim veb-sayti. <https://finlit.uz/uz/articles/budget/savings-techniques/>
18. Theory: 6 Jars Budgeting Method <https://readinggraphics.com/the-6-jar-wealth-management-system-by-t-harv-eker/>
19. Moliyaviy savodxonlik va ommaboplikni oshirish departamenti <https://cbu.uz/uz/about/central-office/divisions/moliyaviy-savodxonlikni-oshirish-va-bank-mutaxassislarini-qayta-tayyorlash-departamenti/>
20. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo‘yicha axborot-ta‘lim veb-sayti <https://finlit.uz/uz/>
21. Moliyaviy savodxonlikni oshirishga mo‘ljallangan bepul telegram boti <https://t.me/tdiurobot>
22. “Moliya olami”. Markaziy bank tomonidan VISA to‘lov tashkiloti bilan hamkorlikda ishga tushirilgan moliyaviy savodxonlikni oshirishga mo‘ljallangan veb-sayti <https://financeworld.uz/>